

XALQARO TIL MAKONIDA INGLIZ TILI

S. Qabulov¹

Annotatsiya:

Bu tezisda ingliz tilining xalqaro tillar doirasidagi o‘rnining qay darajada muhimligi va yer yuzida ingliz tilida gapiruvchilarjing ko‘pligi, tilning yil sayin ommalashib borishi, buning sabablari chuqur o‘rganib chiqildi. Boshqa xalqaro tillardan ingliz tilining ustun jihatlari o‘rganib chiqilib tillar doirasida solishtiruvlar olib borildi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro til, Ingliz tili, Ingliz tilining ahamiyati, Globalizatsiya, Xalqaro muloqot, Biznes va savdo tili, Ta’limda ingliz tili, Diplomatiya, Internet va texnologiya, Ommaviy axborot vositalari.

doi: <https://doi.org/10.2024/fx868k47>

Bu tezisda ingliz tilining xalqaro tillar doirasidagi o‘rnining qay darajada muhimligi va yer yuzida ingliz tilida gapiruvchilarjing ko‘pligi, tilning yil sayin ommalashib borishi, buning sabablari chuqur o‘rganib chiqildi. Boshqa xalqaro tillardan ingliz tilining ustun jihatlari o‘rganib chiqilib tillar doirasida solishtiruvlar olib borildi.

Ingliz tili (inglizcha: English) — hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili. Avstraliya, AQSH, Birlashgan Qirollik, Hindiston, Irlandiya, JAR, Kanada, Liberiya, Malta va Yangi Zelandiyaning rasmiy tili.[1] Ingliz tili dunyoda eng ko‘p ishlataladigan tillar ichida Ispan va Mandarin Xitoy tillaridan so‘ng turuvchi uchinchi til hisoblanadi. Undan tashqari ingliz tili Yevropa ittifoqining asosiy tili ham hisoblanadi. Ingliz tili BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Osiyo va Afrikadagi ko‘pgina mamlakatlarda tarqalgan. Bu tilda yer yuzidagi 400 milliondan ortiq kishi gaplashadi (1992). [2] Bu son hozirgacha kun sayin ortib bormoqda.

Bugungi kunda qariyb 70 ta mamlakatda ingliz tili davlat tili hisoblanadi. Dunyodagi ko‘p sonli xalqaro tashkilotlarning 85 foizi rasmiy ish tili va millatlararo muloqot vositasi sifatida ingliz tilini qo’llaydi. BMTning rasmiy tillari 5 ta – ingliz, ispan, xitoy, arab, rus tillari bo‘lishiga qaramasdan, xalqaro huquq normalari, BMT doirasida qabul qilingan rasmiy hujjatlar matni avvalo ingliz tilida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi, keyin boshqa tillarga tarjima qilinadi. [3] Jahon bo‘yicha kino mahsulotlarining 85 foizi, ilmiy ishlarning esa 90 foizi ingliz tilida nashr qilinadi, xalqaro Nobel mukofotiga loyiq deb topilgan nodir asarlarning ham juda ko‘pchiligi ingliz tilida yozilgan yoki shu tilga tarjima qilingan.

Har yili jahoning mashhur yozuvchisi va nomdor dramaturgi Uilyam Shekspir tug‘ilgan kun-23 aorelda “Ingliz tili kuni” nishonlanadi. Bu kun Shekspir tug‘ilgan kun va uning vafotidan yilligi sifatida tahmin qilingani uchun tanlangan. Shekspir dunyo tarixida ingliz tiliga eng ko‘p xissa qo’shgan yozuvchilar.

¹ Qabulov Sardorbek Nasriddin o‘g‘li, Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

International Conference
THE DEVELOPMENT HISTORY AND MODERN SIGNIFICANCE OF INTERCULTURAL DIALOGUE

Ingliz tilini dunyo tan olishining sabablari ko‘p deb qaraladi. Ulardan biri - Angliyaning yantuqlari.

Bir davr lotin tili ilm-fan va siyosat tili sifatida e'zozlandi. Orada fransuz tili ham ana shunday maqomga ega bo'ldi, 17-asrdan boshlab, Angliya dunyoning ko'plab davlatlari ustidan hukmronlik o'rnatdi va ingliz tili dengizlar osha savdo tiliga aylana boshladi. Barchaga mashhur Ost va Ist-Indiya kompaniyalari kirib borgan hududda aholi inglizcha yashash tarziga ko'nika boshladi. Buning ketidan, bu davlatlar o'rtasida hamdo'stlik tuzilishi, Buyuk Britaniyaga katta harbiy salohiyatini yaratishga imkon berardi. Angliya tasarruf etgan davlatlarda xalqlar mustaqil bo'la turib, ingliz tilini so'zlashuv tili sifatida tan olgan.

Amerikaning taraqqiy etishi

Birinchi Jahon urushini qarz beruvchi mamlakat yetakchilari sifatida boshlagan ingliz siyosatchilari urushdan so'ng, qarzdor davlat boshqaruvchilariga aylandi. 20-asrning ikkinchi yarmida AQShning davri boshlandi. AQSh eng kuchli mamlakatga aylanib, o'z mahsulotlari bilan jahon bozorlarini to'ldirdi. U ham qachonlardir Angliya mustamlakasi bo'lib, ozod yurt yaratgan kishilar mamlakati edi. Amerikada kompyuter va internet yaratilishi ingliz tilini butun yer shariga tarqalishiga olib keldi. Okean ortidagi hayot tarzi butun dunyo aholisida havas uyg'otib, amerikaliklarga yaqinroq bo'lish uchun ko'plar ingliz tilini o'rgana boshladi.[4]

Iqtisodiy Va Siyosiy Ta'sir: XX asrda AQShning iqtisodiy va siyosiy kuchi ingliz tilining global til sifatida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. AQShning biznes va moliya markazi sifatida rol o'ynashi ingliz tilining xalqaro biznesda asosiy til bo'lib qolishiga yordam berdi.

Madaniy Ta'sir: Ingliz tili keng tarqalgan madaniy mahsulotlar, jumladan, Hollywood filmlari, musiqa, va adabiyot orqali global madaniyatga kirib borgan. Bu ingliz tilini butun dunyo bo'ylab ommalashtirdi.

Ta'lif: Ko'plab xalqaro universitetlar va ta'lif dasturlari ingliz tilida olib boriladi. Ingliz tilidagi ilmiy nashrlar va akademik tadqiqotlar global ilm-fan jamiyatida katta ahamiyatga ega.

Internet Va Texnologiya: Internet va texnologiya sohalarida ingliz tili asosiy tillardan biri hisoblanadi. Ko'plab veb-saytlar, dasturlar va dasturiy ta'minotlar ingliz tilida mavjud, bu esa ingliz tilini xalqaro kommunikatsiyada keng tarqalishiga yordam beradi.

2. Ingliz tili – savdo va biznes tili

Dunyo bo'ylab bitimlarning 90 foizi ingliz tilida tuziladi. Jahon moliyaviy fondlari va birjalari ingliz tilida faoliyat yuritadi. Yirik korporatsiyalar dunyoning har bir chekkasida ingliz tilidan foydalanadi. Garchi ingliz tilida so'zlashmasa ham, xorijiy sarmoyadorlar uchun shu tilda takliflarni ifoda etish ancha qulay va soddaroq.

3. Ingliz tili – ta'lif tili

Maktablarda chet tili sifatida, asosan, ingliz tili o'rgatiladi. Dunyoning eng nufuzli oliygohlari qatorida turgan birinchi 10 ta universitet ham aynan ingliz tilida faoliyat yuritadi. Ingliz tilini bilish sifatli ta'lif olishga va obro'li kasb egasi bo'lishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda ko'p tillilik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tilini bilish ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini ochishdan tashqari, odamlar bilan haqiqiy aloqa o'rnatishga va turli madaniyatlar, joylar va turmush tarzi haqida ko'proq

bilishga yordam beradi. Tillar haqida gap ketganda, hukmronlik va madaniy kuch o'rtasida bog'liqlik mavjudligi haqida dalil keltirish mumkin. Bundan tashqari, tillar mashhur bo'l shining asosiy omili iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy bo'ladimi, yetarli quvvat bazasi bilan bog'liq.[5]

Diplomatiya Va Xalqaro Munosabatlar: Ingliz tili ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Ittifoqi (EI), va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi muhim xalqaro tashkilotlarning rasmiy tillaridan biridir. Xalqaro konferensiylar, diplomatik uchrashuvlar va ko'p tomonlama kelishuvlar ingliz tilida olib boriladi.

Ilm-Fan Va Tadqiqot: Ko'plab ilmiy tadqiqotlar va nashrlar ingliz tilida chiqariladi. Ushbu til ilmiy jurnallar va akademik ishlarda keng qo'llaniladi. Ko'plab ilmiy konfranslar va seminarlar ingliz tilida o'tkaziladi, bu esa global ilmiy hamjamiyat uchun muhim axborot almashishni osonlashtiradi. Ta'lif: Ko'plab yirik universitetlar va ta'lif dasturlari ingliz tilida o'qitiladi. Ingliz tilidagi ilmiy materiallar va resurslar global ta'lif tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ingliz tilida ta'lif olish imkoniyatlari chet elda o'qish va akademik almashinuv dasturlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ommaviy Axborot Vositalari: Ingliz tilidagi media, jumladan, televizion dasturlar, filmlar, musiqalar, va nashrlar butun dunyo bo'y lab keng tarqalgan. Hollywood filmlari va ingliz tilidagi telekanallar global madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Internetda mavjud bo'lgan ko'plab kontent, veb-saytlar, va ijtimoiy media platformalari ingliz tilida bo'lishi, ushbu tilning global kommunikatsiyadagi o'rnnini yanada mustahkamlaydi. Texnologiya Va Internet: Ko'plab dasturiy ta'minotlar, dasturlar va onlayn platformalar ingliz tilida mavjud, bu esa ingliz tilini global texnologiya sohasida muhim tilga aylantiradi. Internetda axborot almashish va onlayn muloqotda ingliz tili keng qo'llaniladi.

Ingliz tili biznes O'zbekiston iqtisodchilari uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, bu ularga transchegaraviy muzokaralar olib borish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish imkonini beradi. Ingliz tilini bilish iqtisodchilarga global manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish, xalqaro iqtisodiy tendensiyalarni tushunish va tahlil qilish hamda butun dunyo bo'y lab taniqli akademik institutlarning ilg'or tadqiqotlari va bilimlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim qiladi. Binobarin, ingliz tilini yaxshi biladigan iqtisodchilar to'g'ri iqtisodiy siyosatni shakllantirishga va ilg'or jahon amaliyotiga mos keladigan samarali strategiyalarni amalga oshirishga katta hissa qo'shishlari mumkin.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ingliz_tili
- [2]. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ingliz_tili
- [3]. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/350-jildan-orti-vat-taia-uchragan-til-bugun-zhaoning-birinchi-raamli-tili-jani-global-til-isoblanadi>
- [4]. <https://kun.uz/news/2018/02/09/kunuz-sinfonasi-nima-ucun-ingliz-tilini-butun-dune-tan-olgan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F02%2F09%2Fkunuz-sinfonasi-nima-ucun-ingliz-tilini-butun-dune-tan-olgan>
- [5]. <https://fledu.uz/uz/global-tilning-orni-va-ahamiyati/>